



The most beautiful aspects of motherhood in Shukur Kholmirzayev's short story "Odam"

Shokhsanam KHUSANOVA¹

University of Tashkent for Applied Sciences

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Shukur Kholmirzayev,
"Odam" short story,
motherhood,
kindness,
self-sacrifice,
patience,
devotion,
realism,
artistic analysis.

ABSTRACT

This article explores the beauty of motherhood in Shukur Kholmirzayev's short story "Odam". The mother figure emerges as a symbol of kindness, self-sacrifice, patience, and devotion. The deep emotional bond between mother and child, along with the mother's pivotal role in upbringing, is depicted with realistic depth. Through artistic analysis, the article examines how the story captures the essence of motherhood.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp234-238>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shukur Xolmirzayevning "Odam" hikoyasidagi onalikning eng go'zal jihatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Shukur Xolmirzayev,
"Odam" hikoyasi,
onalik,
mehr-oqibat,
fidoyilik,
sabr,
sadoqat,
realizm,
badiiy tahlil.

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning "Odam" hikoyasida onalikning eng go'zal jihatlari tahlil qilinadi. Asarda ona obrazi mehr-oqibat, fidoyilik, sabr va sadoqat timsoli sifatida tasvirlangan. Ona va farzand o'rtasidagi chuqur hissiy bog'liqlik hamda onaning farzand tarbiyasidagi roli realistik ruhda yoritilgan. Maqolada hikoyadagi onalik fazilatlarini badiiy tahlil asosida o'rganiladi.

¹ Teacher, University of Tashkent for Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan. E-mail: shokhsanam.xusanova@mail.ru

Самые прекрасные аспекты материнства в рассказе Шукура Холмирзаева «Одам»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Шукур Холмирзаев,
рассказ «Одам»,
материнство,
доброта,
самоотверженность,
терпение,
преданность,
реализм,
художественный анализ.

В данной статье анализируются самые прекрасные аспекты материнства в рассказе «Одам» Шукура Холмирзаева. Образ матери представлен как символ доброты, самоотверженности, терпения и преданности. Глубокая эмоциональная связь между матерью и ребенком, а также роль матери в воспитании раскрыты в реалистичном ключе. В статье изучаются материнские качества в рассказе на основе художественного анализа.

O'zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar Kultegin va To'nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Hikoya –badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalarini ixcham ifoda etadigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an'analarga ega. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakillangan. Hikoya atamasi kengroq ma'noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So'zlab berilgan bunday voqea o'z qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga ham xos bo'lishi mumkin. Bunday hollarda bu atama janr ma'nosida tushunilmaydi. To'qima obrazlardan emas aynan hayotiy voqealardan olingan hikoyalarning insonlar tomonidan keng ko'lamda mutolaa qilinishiga ham sabab bo'lgani alohida e'tirof etish kerak.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligi san'atining ustozlari Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan ijodkorlardan biridir. Uning hikoya qissa, romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi ayni paytda ijod jarayonining o'ziga xosligini bildiradi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda ketadi. Mustaqil uslubga, individual ovozigacha ega ijodkor qanchalik ko'p bo'lsa individual ijodiy jarayon ham rang-barang bo'ladi. Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi. Shukur Xolmirzayev hozirgi o'zbek adabiyoti o'z ovozigacha, uslubigacha ega bo'lgan ijodkordan hisoblanadi. Adibning hikoyalarida asosan Surxon vohasining koloriti yorqin sezilib turadi. Yozuvchining hikoyalarida surxondaryoliklarning o'ziga xosligi, yorqin va katta xarakterlari, yashash tarzi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Yozuvchining hikoyalarida surxondaryolik o'ziga xoslik yorqin va keng xarakterlari, yashash tarzi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Uning "Odam" hikoyasida ham koloritni aniq sezishimiz mumkin. To'g'ri yozuvchi dastlabki ijodiy qadamlaridanoq "o'zligini" o'z uslubini topib olgani yo'q. U tinimsiz izlanishlar, ijodiy tajribani o'zlashtirish jarayonida shunga erishdi. "Mana o'tmish hozirgi zamon adabiyoti yozish usullaridan ozmi ko'pmi o'rganib, o'z yo'limni toppish ustida ko'p o'ylandim" – degan edi yozuvchi. Shukur Xolmirzayevning boshqa asarlari ham fikr olishuviga sababchi bo'lgan. Demak, u zamondoshlarimizni to'lqinlantiradigan, salmoqli ijtimoiy fikrga molik asarlar ijod qilayotgan yozuvchidir. Shu hikoyalar ichida "Odam" hikoyasi alohida salmog' jihatidan juda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar qatoriga kiradi. Ushbu hikoyada odamning butun boshli taqdiri hikoya qilinadi. Unda Raxima ismli ayolning

hayoti, kechmish kechinmalari qalamga olinishi misolida o'quvchi umr va mazmun haqida chuqur falsafiy mushohada yuritish imkoniga ega bo'ladi. Adib Rahima obrazi orqali o'zbek ayollarining naqadar kuchli, bardoshli hayotning har qanday zarbasi bo'lsada uni matonat bilan yengib o'ta olishi, umrini oilasiga farzandlariga hattoki nevaralari uchun ham baxshida qila olishligini, hayotining mazmuni bir umrlik yo'ldoshidan ajralganda ham matonat bilan yenga olishlikni oddiy qalami orqali qog'ozga tushura olgan samimiy ijodkordir. agar Adib bugungi kunda hayot bo'lganlarida jamiyatimizdagi ayrim to'qlikka sho'xlik qilayotgan, oilaviy iker – chikirlariga taslim bo'layotgan singillarimiz haqida qanday hikoyalar yozgan bo'lishi mumkinligi haqida chuqur hayol sursa bo'ladi. Ayol sifatida turmushda yolg'iz qolish, farzandidan ajralish zamon notinch vaqti ayolning nomusini saqlay olish ham juda katta matonat hisoblanadi. Bugungi tinch zamonimizda ozgina yetishmovchiliklar orqali oilasiga xiyonat qilib qilib ayollarim ham yo'q emas. Raxima onaning Abdurahimdan qora xat kelishi, yolg'iz onaga naqadar qiyin ekanini, kelinining farzandlarini qaynonasiga tashlab ketishi, sal o'tmay yana oila qurishi, farzandini yerga bergan jamiki ayollar uchun naqadar qiyin ekanini anglash oson emas. Bu onani hali ham baxtiga qizi Adolat opa borligi uni yashab qolishga bo'lgan umidi, ilinji edi. Adolat opa ham yosh bo'lmadi uni ham qishloqni eng og'ir ishlarini qilishi erkakday dashtma dasht yurishi oila yuki uning ham gardanida edi. Adib shu davr muhitini yaqqol olib chiqa olgan. O'quvchi hozirgi kunda ham hikoyani o'qisa ko'z oldiga yaqqol namoyon bo'ladi, yoki o'sha davr muhitiga tushadi. Hikoya o'qiyotgan har qanday o'quvchi his tuyg'ular bilan o'qiydi. Adibning qalami kuchli bo'lsa bilingki mutolaa qilayotgan shaxs hikoyani ichiga kiradi, o'zicha nima tasavvur qiladi shu obrazlar bilan yashaydi, ichki kechinmalari olamida birgalikda suzadi.

Ushbu maqolada "Odam" hikoyasida onalikning eng go'zal jihatlari tahlil qilinadi.

Onaning mehr-muhabbati va fidoiyligi

"Odam" hikoyasida ona obrazi mehr-muhabbat va fidoiylilik timsoli sifatida gavdalanadi. U farzandini har qanday holatda ham qo'llab-quvvatlaydi, unga g'amxo'rlik qiladi. Xolmirzayev ona obrazi orqali hayotda eng ulug' tuyg'ulardan biri – onaning farzandga bo'lgan cheksiz mehrini yuksak badiiy talqin etadi. Bu mehr-muhabbat nafaqat so'zlarda, balki uning harakatlarida, yurish-turishida, hatto ko'zlarida ham namoyon bo'ladi.

Onaning sabr-toqati va matonati

Ona hayotda juda ko'p sinovlarga duch keladi, biroq u har qanday mushkul vaziyatda ham bardoshli bo'lishi kerak. "Odam" hikoyasida ona qahramoni o'z farzandi uchun mashaqqatlarni yengib o'tishga, hayotning qiyinchiliklariga qarshi turishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Uning sabr-toqati, matonati va hayotdagi irodasi hikoyaning asosiy g'oyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Onaning yuragidagi bu tuyg'u uni o'zgalar oldida yanada baquvvat qilib ko'rsatadi.

Onaning o'z farzandi taqdiri uchun qayg'urishi

Ona o'z farzandining taqdiri haqida chuqur qayg'uradi va uni himoya qilishga, unga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qiladi. Hikoyada ona o'z farzandi baxtli bo'lishi uchun harakat qiladi, uni qo'llab-quvvatlaydi va yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Onaning yuragidagi bu tuyg'u butun hikoya davomida sezilib turadi va o'quvchiga onaning buyuk mehribonligini his qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, ona qahramoni farzandining hayotiga to'g'ri yo'nalish berish uchun o'z tajribasidan foydalanadi va unga hayot saboqlarini o'rgatadi.

Onaning himoya va qo'llab-quvvatlash rolini bajarishi

Hikoyada ona farzandini nafaqat tarbiyalaydi, balki hayotning og'ir sinovlaridan asrashga harakat qiladi. Onalik himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lib, bu jihatlar Xolmirzayev tomonidan juda nozik tasvirlangan. Onaning qiyinchiliklar oldidagi mustahkamligi, farzandining hayotini yaxshilash yo'lidagi intilishi hikoyaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Onaning farzandini ruhiy va jismoniy qo'llab-quvvatlashi, uni hayotning qiyin yo'llarida yo'naltirishi ona obrazi orqali aniq ko'rsatilgan.

Onaning fidokorligi va o'zini qurbon qilishga tayyorligi

Onalik fidokorlik bilan bog'liq bo'lib, "Odam" hikoyasida bu jihat juda yorqin aks etgan. Ona o'z hayotini, ba'zan esa orzularini farzandining kelajagi yo'lida qurbon qilishga tayyor. Bu fidokorlik oddiy harakatlarda, onaning har bir so'zida va uning yuragidan o'tgan og'riqlarda aks etadi. Xolmirzayev bu jihatni juda chuqur va tasirli tarzda ochib bergan. Onaning fidokorligi nafaqat uning o'z hayotida, balki farzandining kelajagiga bo'lgan umidlari, orzulari va intilishlarida ham yaqqol seziladi.

Onaning o'z farzandi bilan bog'liq orzu-umidlari

Ona farzandining kelajagi haqida doimo o'ylaydi va uning yaxshi inson bo'lib yetishishini xohlaydi. Hikoyada ona o'z farzandi uchun orzu qiladi, uning baxtli hayot kechirishi uchun tinmay harakat qiladi. Bu onalik hissining yana bir go'zal jihati bo'lib, onaning mehr-muhabbatini yanada yuksak darajaga ko'taradi. Farzandining orzularini amalga oshirish yo'lida ona o'zining barcha imkoniyatlarini ishga soladi va bu jarayonda o'zining hayotiy tajribasidan samarali foydalanadi.

"Odam" hikoyasini o'qiy turib insonlarda aynan shunday hislar kechishi mumkin. Inson o'zini bir lahza Adolat onani o'rniga o'zini qo'yib ko'rsa shukronalik hissini tuyadi. Aynan shunday holat bizning hayotimizda ham bo'lishi mumkin ediku degan savollar tug'uladi. Hikoyada yozuvchi balki umuman boshqa narsalarni o'ylab yozgandir ammo biz kabi o'quvchilar o'zimiz uchun tamomila boshqa tuyg'ularni kashf etishimiz mumkin. Shukur Xolmirzayevning "Odam" hikoyasida onalikning eng go'zal jihatlari chuqur ifodalangan. Asar qahramoni bo'lgan ona obrazi mehr-muhabbat, fidoyilik va sabr-toqat timsoli sifatida gavdalanadi. Hikoyada onaning farzandi uchun cheksiz g'amxo'rliqi, uning taqdirini o'zgartirishga bo'lgan intilishi va jonfidoligi yorqin aks etgan. Muallif ona mehrining inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini ta'sirchan badiiy vositalar orqali yoritib bergan. Tassavur qiling bugungi kun davri uchun bunday onalar qahramon deya olishimiz mumkunmi? Shu mavzuni talabalar bilan muhokama qilib ko'rish mumkin. Ular bilan hikoyani o'qib birgalikda erkin tarzda muhokama qilib, o'zlarining shaxsiy qarashlarini bilish, hikoya o'qish jarayonida nutqiy jihatdan ularni rivojlantirish, qarashlarini erkin ayta olish va albatta muhokamada qat'iyatlik bilan o'z fikrlarida tura olish kabi xususiyatlarini rivojlanishida hikoyaning nafaqat shakli balki mazmuni ham qanchalik beqiyosligini bilishimiz mumkin. Shukur Xolmirzayev serqirra ijodiy faoliyat egasi, millatimizning fidoiy yozuvchisi haqiqatgo'y adib, yozuvchi hikoyachilik rivojiga o'zining hikoyalari va qissalari bilan salmoqli hissa qo'shgan. Atrofda ro'y berayotgan voqea – hodisalarga hikoyalari orqali hozirjavoblik bilan javob bera olgan. Sa'natsiz adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini Shukur Xolmirzayevning ijodida qayta-qayta ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, u umri davomida yozuvchilik ruhi va hayoti bilan yashagan. Sh. Xolmirzayev ijodida obyektivlik, insonni tushinishga harakat, xolislik kabi jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayev o'zining o'chmas merosi hisoblanmish – asarlari bilan barhayotdir.

Shukur Xolmirzayevning “Odam” hikoyasi onalikni ulug’lovchi badiiy asarlardan biridir. Unda ona obrazi nafaqat biologik farzandini, balki atrofdagi har bir insonni mehr bilan bag’riga bosadigan ulug’vor timsol sifatida tasvirlangan. Onaning fidoyiligi, bardoshi va mehri asar davomida yorqin ko’rinib turadi. Asar orqali yozuvchi insoniylik va mehr-muhabbat eng yuksak qadriyat ekanligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jo’rayev, F. “Onalik mavzusi o’zbek adabiyotida” // Ilmiy tadqiqotlar to’plami, 2023.
2. Ismoilov, Z. O’zbek nasrida badiiy tafakkur rivoji – Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Karimov, U. “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida obraz va badiiylik” // Ilmiy maqolalar to’plami, 2021.
4. Rustamov, D. “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijtimoiy muammolar yoritilishi” // Adabiyotshunoslik tadqiqotlari, 2023.
5. Saidov, H. “Shukur Xolmirzayev ijodida insoniylik va hayot haqiqatlari” // Adabiyot va san’at, 2022.
6. G’ulomov, N. “O’zbek adabiyotida onalik mavzusi” // Adabiyotshunoslik jurnali, 2020.
7. Yoqubov, A. O’zbek hikoyachiligida realizm – Toshkent: Fan, 2018.